

MUZEY EKSPOZITSIYASIDA “LOY JANGI” PANORAMASI.

Buxorova Marjona Murodullo qizi

„Shahrisabz” davlat muzey- qo`riqxonasi rassom-ta'mirchi

Anotatsiya: Maqola mohiyati “Shahrisabz davlat muzey-qo`riqxonasi” ekspozitsiyasida namoshish etib kelinayotgan “Loy jangi” panorama asarining yaratilish tarixi, uslubi, joylashuvi, ranglar gammasi, konstruksiyasi va tarixiy mavzuni to`liq ifodalab berishdan iborat.

Аннотация: Суть статьи заключается в раскрытии истории создания, стиля, расположения, цветовой гаммы, конструкции и полного отражения исторической темы панорамного произведения («Лой жанги»), которое экспонируется в Шахрисабзском государственном музее-заповеднике.

Annotation: The essence of the article is to present the history of creation, artistic style, location, color palette, construction, and complete representation of the historical theme of the panoramic artwork (“Loy jangi”), which is exhibited in the Shahrisabz State Museum-Reserve.

**Kalit so`zlar:** Amir Temur, “Loy jangi”, madaniyat-ma`rifat, tarix, ilm-fan, ekspozitsiya, jang, san`at, adolat, qudrat, uslub, Ilyosxo`ja, Movarounnahr, qo`shin lashkarlari, yomg`ir, muzeyshunoslik, tas`viriy san`at, natura, mahobat dasatgohli rang tas`vir, botal janri.

Asosiy qism: Amir Temur nomli moddiy-madaniyat tarixiy muzeyi negizida 2019-yil 30-may O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 3 sonli qarori asosida “Shahrisabz davlat muzey – qo`riqxonasi” tashkil etildi. Shahrisabz davlat muzey qo`riqxonasi tarkibida 7 ta tarixiy obidani o`z ichiga olgan (Chubin madrasasi, Shahrisabz va shaharning tarixiy qal`asi, Chorsu savdo gumbazi, Arxiologiya topilmasi (Hammom), Malik Ajdar masjidi, Abdushukur Og`oliq masjidi binosi, Kunchiqar masjidi) hamda ita filial (“Maqom” muzeyi) faoliyat ko`rsatmoqda. 2020-yil holati bilan muzey-qo`riqxona fondida 35000 dan ortiq eksponatlar, arxeologik buyumlar, amaliy sa`nat buyumlari, rassomlik asarlari mavjud.

Amir Temurning hayoti va harbiy faoliyatiga mos asarlar ham joy olgan. Ayniqsa, tarixiy-jang mavzularga oid asarlar tarixiy voqeani yanada yoritib beradi. Amir Temurning ilmi, davlat boshqaruvi, siyosiy strategialari, xalqparvarligi, adolati, qudrati, tahlikali vaziyatlardan uslubiy chiqib keta olish mahorati tarixda o`chmas iz qoldirgan.

“Amir Temur adolatni nihoyatda yaxshi ko`rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko`rmagan. U ilm - fanni ham, san`at ahlini ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san`atning gullab – yashnashiga erishish edi. Uning oliyanobligi bisyor va bisyor hollarda namoyon bo`lmishkim, alar haqinda so`ylab o`tirishning o`rni emasdir”-deb takidlagan Shahrofiddin Ali Yazdiy¹. Masalan, Chubin

¹ Люсен Керен. Амир Темур Салтанати. «Зукко китобхон». Тошкент – 2024. – Б 32

madrasi ekspozitsiyasida namoyish etib kelinayotgan “Loy jangi” asari haqida alohida toʻxtalib oʻtiladi.

“Loy jangi” deb tarixga kirgan jang voqeasi 1365-yillar bahor faslining “22-may oyida Amir Temur, Amir Husayn bilan birga mugʻul xoni Ilyosxoʻjaga qarshi qoʻshin tortgan edi. Jang manzili hozirgi Toshkent (tarixda Chosh, Shosh nomi bilan mashhur) Chinoz oraligʻida Chirchiq daryosi boʻyida sodir boʻlgan. Oʻsha yillar Movvarounnahr hududida siyosiy beqarorlik hukm surayotgan vaqt edi. Ilyosxoʻja Movarounnahrni qoʻlga kiritmoqlik maqsadida bu vaziyatdan foydalandi va oʻz qoʻshinlarini bir tugʻotiga toʻpladi. Temurbek va Husayn gʻanimga qarshi chiqdilar. Ammo Temurbek va amir Husayn tarafdorlari orasida nifoq chiqqan edi Bahor fasli, havo oʻzgaruvchanlik sababli yomgʻir davomli yogʻardi. Daryo suvi toshgani va ashaddiy yomgʻir (jala) tufayli jang maydoni loyga botib qoldi. Otlar beliga qadar loyga botgani sabab jang qilish yanada murakkablashdi. Piyoda lashkarlar esa yurishga qiynaldilar.

Rivoyatlarga qaraganda Ilyosxoʻja yomgʻir chaqirish marosimini oʻtgazgan va mugʻul afsungari sehrli “Yada” toshi orqali yomgʻir chaqirtirgan degan afsonalar ham bor. Bundan ogohlantirilgan Ilyosxoʻja qoʻshini suv oʻtmas oʻtovlar qurishgan, chegaralarga himoyalaniish uchun xandaqlar qazishgan edi. Movarounnahrlik jangchilar esa suyak-suyaklarigacha ivib ketishdi. Bu sharoit Temurbek qoʻshiniga nisbatan raqib tomonidan tayyorlangan taktik hiyla deb ham hisoblanadi.

Bir tomondan jangdan bosh tortgan amir Husayn qoʻshin lashkarlarini olib Kesh ostonasi tomon qochishga urundi. Qaynogʻasining nayrangini koʻrgan Temur gʻazablansada yolgʻiz oʻzining ivib, shalabbo boʻlgan va holdan toygan askarlari gʻanimga dosh berolmasligini bilardi. Mugʻul qoʻshini yaqinlashib kelayotganligi tufayli Temur janubga, Balx yaqiniga chekinishga majbur majbur boʻladi.

Tarixda bu kabi voqealar koʻplab roʻy bergan. Asrlar mobaynida bizgacha yetib kelgan tarixiy-siyosiy, afsonaviy hodisalarni yoritish

maqsadida tarix, tasʼviriy sanʼat, sanʼatshunoslik, muzeyshunoslik sohalaridan keng foydalanilmoqda.

Yosh kelajak avlodlarimizni tarix bilan tanishtirish, asli kimlarning avlodlaridan ekanligini bilish, ajdodlari buyuk insonlardan boʻlganini oʻrganish va faxrlanish, ularga munosib avlod boʻlish,

tarixdan xabardorlikka undaydi. Yurtimizning turli manzillarida xalq madaniyatini rivojlantirish, tarixni asrash va kelajakka yerkazish uchun xizmat qiladigan muzeylar, tarixiy obidlar, madaniy maskanlar va tasʼviriy sanʼat asarlari shakillanmoqda.

Ayniqsa, sayyohlar eʼtiborini tortayotgan, tarixning voqealarini jonlantirib berayotgan mahobtli, rang tasʼvirli, panaramali (3D oʻlchamli) va moʻjaz (miniaturaliy) chizilgan asarlar oʻtmishga boʻlgan boqishimizni kengaytirmoqda. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Qashqdaryo, Surxondaryo, Fargʻona, Toshkent hududlarida tarixiy manzillar, yodgorliklar, muzeylar juda koʻp. Tarixni asrab qolishda sanʼat galeriyalari va muzeylarda namoyish etilayotgan tasʼviriy sanʼat ekspozitsiyalari ham yanada katta hissa qoʻshmoqda.

Xususan, chet ellik va mahalliy sayyohlar bilan gavjum “Shahrisabz davlat muzey-qoʻriqxonasi” da ham 35 tadan oshiq (rassomlik) tasʼviriy sanʼat asarlari, 298 dona suratlar, 35 dona haykaltaroshlik buyumlari, 101 dona amaliy sanʼat buyumlari, 446 dona numizmtika (tangashunoslik), 31883 dona arxiologik, 1039 etnografiya , hujjatlar, noyob buyumlar ,ilmiy yordamchi materiallarni tashkil etadi. Tasʼviriy sanʼat asarlari ichida “Loy jangi” panoramasini muhim oʻrin olgan.



Asar 2016-2017 yillar muzey ekspozitsiyasi uchun maxsus ishlangan.

Rassomlar: A.Sattorov, G. Haydarov tomonidan botal (tarixiy-jang manzarasi) janrida , panorama (3D) uslubida mohirona chizilgan.

Panorama – hajmi katta, har tomondan koʻrinuvchi , 3tomonlama oʻlchamli devoriy yoki dastgohli rang tasʼvir manzarasi.

Asarning chap tomonida janga shaylanayotgan Amir Temur , ortida esa sarbozlari, oʻng tomonda amir Husayn va uning qoʻshini tasʼvirlangan. Panorama toʻliq jang holatini: bulutli havo, loyga aylangan tuproq, bosh qahramonlar, askarlarning qiyofalari va ularning loyga qorishgan qurol- aslaxalari aniq aks etgan. Ekspazitsiya zaliga kirishning

tomonida Amir Temur siymosi, qaynogʻasining xiyontidan gʻazablangan suratda, orqa fonda qoʻshin lashkarlari, otlar charchagan va piyodalar harakatlanishga qiynalayotgani chizilgan. Amir Husaynning ortga qarab qochish holati esa panaramaning oʻng tarafida aks etgan. Oyoq ostida askarlar tasʼvirlanmagan.

Chunki, Amir Husayn hatto jangga kirmagan ham edi va qoʻshin lashkarlari talofatsiz jangdan qochishgandi. Ammo Amir Temur eng yaqin safdosh doʻstlaridan ajraldi va katta zarar koʻrdi. Koʻp oʻtmay Movarounnahrni qamaldan ozod etadilar. Bu Amir Temurning birinchi va soʻngi magʻlubiyati ekani tarixda keltirilgan. Asar shu darajada hayotiy ishlanganki, tomoshabin oʻzini huddi “Loy jangi” maydoniga tushib qolgandek his qiladi. Panoramani tomosha qilar ekansiz, jangnig sovuq v mahzun rangini koʻrasiz. Otlarning kishnashi, tuyoq ovozlari va qoʻshinning safda tortilib borayotgan hayqiriqlari qulogʻingizga chalinadi. Yana bahorning oʻzgaruvchan nafasi, yomgʻir ifori , va urushning dahshatli vahimasi ham aks etgan. Asarda ranglar uygʻunligiga katta eʼtabor berilgan. Joylashuvi, soya –yorugʻ ranglari , holati, quyosh nuri tushishi orqa va oldi fon qahramon (natura) lari barchasi hisobga olingan.

Rassomlar o'z tajriba va mahoratlaridan foydalanib "Loy jangi" asarni professional ko'rinishda yaratishdi. Ayniqsa, naturaning anatomik tuzilishi, joylashuvi, orqa fon qahrmonlarining bir – biriga xalaqit bermasdan chizilgani va otlarning xarakteri, harakatlanayotgan holati e'tiborga olib ishlangan. Asar to'liq panoramali ko'rinishga olib kelinishi va katta hajmga ko'chirilishidan oldin minglab qoralama (eskiz) lar ishlangan, ranglar almashtirilgan, naturalar o'zni minglarcha qayta chizib chiqilgan. Bunday ma'suliyatli tas'viriy san'at asari yaratish uchun rassomlardan katta mehnat va vaqt talab qilingan. Panoramani har bitta detali, rangi va naturalariga buyuk ilhom ila yondoshilgan. Shu sababli muzey fondidagi panarama noyob ekspozitsiyalar safida namoyishdan joy olgan.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, yurtimizning madaniyat va ma'rifiyatini yuksaltirishga hissa qo'shish, qadriyatlarimiz, tarixiy manbaalarimizni asrab-avaylash maqsadida madaniyat maskanlarini ko'paytirish, muzeylashtirishga diqqat qaratish, noyob tas'viriy san'at asarlarini yaratish va saqlash, galariyalar tashkillashtirish, rassomlar tomonidan ko'rgazmalar uyushtirish yurt rivojiga katta hissa qo'shadi.

"San'at bu tizim emas, balki bir organizmdir" – degan edi Osvald Shpengler.² San'at jamiyat hayotining boshqa hodisalari (fan, mafkura, axloq) bilan ma'lum darajada bog'liqlikdir. Tabiat, jamiyat va insonning ijtimoiy, ma'naviy, milliy dunyosi san'at predmeti hisoblanadi. Voqelik qaysi shaklda ifoda etilmasin, ijodkor unga ma'lum ijtimoiy estetik ideal nuqtai nazardan munosabat bildiradi va o'z estetik bahosini beradi.³ Tas'viriy san'atning manzara, portret, botal, tarixiy, natyurmort kabi va boshqa uslublarida ham asarlar yaratish tariximizni asrashda va sirli o'tmishlarni yanada ochib yordam beradi. O'zbekiston tas'viriy san'atida bu janrlarning sarchashmalari qadimdan arxeologik topilmalar (san'at namunalar) va miniatura san'atida ko'rinadi. Qo'lyozma kitoblar bezagining ajralmas qismiga aylangan mo'jaz rasmlarda bazmlar, qabul marosimlari chizilgan suratlar bizgacha yetib kelgan. K. Behzod, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar jang lavhalarini o'ziga xos tarzda tas'virlangan. Shuningdek, yozma manbaalarda ta'kidlanishicha, Amir Temur saroyi devorlariga sohibqironning qahramonlik yurishlarini aks ettirgan jang lavhalari ishlangan.⁴

Boy va faxrli tarix, mustahkam va buyuk poydevorli kelajakni yaratadi. Ilm – fan, san'at va tarixga diqqatli bo'lish, o'zlikni tanishga yo'l ochadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston muzeylarining dolzarb moammolari //(xalqaro anjuman materiallari) Shahrisabz-2024.
2. Lyusen Koren "Amir Temur Saltanati" "Zukko Kitobxon" nashriyoti. Toshkent-2024.
3. Akbar Hakimov. Tarixiy ong: uyg'unlik yoxud parchalanish // Moziydan sado № 3/87. 2020. 1-7 bet.

² Akbar Hakimov. "Moziydan sado" "Tarixiy ong: uyg'unlik yoxud parchalanish" № 3/87 2020. B 1-7

³ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi ilmiy davlat nashriyoti. 2000-2006.

⁴ O.N SHOMURODOV. TAS'IRIY SAN'AT TARIXI. "Durdona" nashriyoti Buxoro-2021. B 34



4.O.N.Shomurodov. “Tas`viriy san`at tarixi”. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2021.

5.”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi ilmiy davlat nashriyoti.2000-2006 yillar.